


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**“UCHINCHI RENESSANS: IQTISODIYOTNI INNOVATSION
RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH ISTIQBOLLARI”**

mavzusidagi xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy anjuman

TOSHKENT-2023



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР
ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

**“УЧИНЧИ РЕНЕССАНС: ИҚТИСОДИЁТНИ
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ВА
БОШҚАРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ”**

**мавзусидаги халқаро миқёсида илмий-амалий анжуман
материаллар тўплами**

2023 йил 24 ноябрь

**Сборник материалов международная научно-практическая
конференция**

**«ТРЕТИЙ РЕНЕССАНС: ПЕРСПЕКТИВЫ
УПРАВЛЕНИЯ И ИННОВАЦИОННОГО
РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ»**

24 ноября 2023 года

**Collection of materials of the international scientific-practical
conference on**

**“THIRD RENAISSANCE: PROSPECTS OF
MANAGEMENT
AND INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE
ECONOMY”**

November 24, 2023

УДК: 337.7

КБК: 66.05

Taqrizchilar: Akademik S.S.Gulyamov
i.f.d.,prof. T.T.Jo‘rayev

i.f.d., prof. T.Z.Teshabayevning umumiy rahbarligi ostida

Tahrir hay’ati a’zolari: prof. Sh.Allayarov, prof. E.Nabihev, prof. F.Nazarova, prof. B.Tashmuradova, prof. G.Hamdamova, i.f.d., prof D.Jalolova, PhD K.Shodmonqulov, k.o’q. Achilova Sh, k.o’q. S.Mamurov, k.o‘qt. Sh.Tuxtamishev, k.o‘qt. D.Yuldasheva

Ushbu xalqaro ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda innovatsion menejmentni va innovatsion muhitni rivojlantirish istiqbollarini bo‘yicha aniq yechimlar, shuningdek mamlakatimiz hamda xorijiy yirik iqtisodchi olimlar, tajribali amaliyotchilar, oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining yetakchi ilmiy xodimlari, doktorant va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy tadqiqot ishi natijalari mujassamlashgan.

Ushbu nashrda keltirilgan barcha ma’lumotlar va fikr-mulohazalar mualliflarga tegishli bo‘lib, tahrir hay’ati a’zolarining fikriga mos kelmasligi mumkin. Nashrda keltirilgan raqamlar, statistik ma’lumotlar, fikr-mulohazalar uchun mualliflar mas’ul hisoblanadi. Ushbu to‘plam institutning 2023 yil 29 noyabr kuni 4-sonli kengash qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan.

УДК: 337.7

КБК: 66.05

ISBN 978-9943-13-999-7

© Toshkent moliya instituti, 2023

© “IQTISOD-MOLIYA”, 2023

37.	<i>Maҳмудова Г. МХХС АОСИДА КРЕДИТ ВА ҚАРЗ МАБЛАГЛАРИ ҲИСОБИНИ ЎРИТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ</i>	124
38.	<i>Zияева Ш.Ш. ТИКУВ-ТРИКОТАЖ КОРХОНАЛАРИНИНГ БРЕНД ПОРТФЕЛЬ СТРАТЕГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ</i>	127
39.	<i>Narziyeva D.M, “O’ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQAROR O’SISHINING TAYANCHI</i>	130
40.	<i>III YO’NALISH. MOLIYA-BANK TIZIMI, QIMMATLI QOG’OZLAR VA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, XALQARO TAJRIBALAR VA UNI MILLIY IQTISODIYOTNI RIOJLANTIRISHDAGI O’RNI Амаев Ш.Ш. УМУМИЙ ФОЙДАЛАНИШДАГИ АВТОМОБИЛЬ ЙЎЛЛАРИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ</i>	133
41.	<i>Yuldasheva D.Sh. TRANSFORMING THE BANKING LANDSCAPE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: A VISION FOR THE FUTURE</i>	138
42.	<i>Maҳмудова Г. МХХС АОСИДА КРЕДИТ ВА ҚАРЗ МАБЛАГЛАРИ ҲИСОБИНИ ЎРИТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ</i>	140
43.	<i>Allayarov Sh., Tashmatova N. MAMLAKATIMIZDAGI ISLOM BANKCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</i>	143
44.	<i>Allayarov Sh., Yusufova M.O. GLOBALIZATION OF MONETARY AND FINANCIAL RELATIONS AND ITS IMPACT ON THE ECONOMY OF DEVELOPING COUNTRIES</i>	145
45.	<i>Shaymatov E.Sh. IQTISODIYOTNING REAL SEKTOR KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	146
46.	<i>Nurmatov M.M. SANOAT KORXONALARINING AYLANMA MABLAG’LAR ZAHIRALARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI</i>	150
47.	<i>Kadirov A.M. SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY BARQARORLIK DARAJASINI BAHOLASH MEZONLARI</i>	154

“O’ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQAROR O’SISHINING TAYANCHI

*Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna
Buxoro davlat universiteti
iqtisodiyot kafedrasи katta o’qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada “O’zbekiston-2030” strategiyasining ikkinchi yo’nalishida belgilangan barqaror iqtisodiy o’sish orqali aholi farovonligini ta’minlashga doir iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlik, sanoat, qishloq xo’jaligi sohalarini yangi bosqichga olib chiqish, mamlakatimizda investitsion jozibadorlikni oshirishga doir tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Strategiya, investitsiya, investitsion jozibadorlik, yashil iqtisodiyot, qimmatli qog’ozlar bozori, inson kapitali.

Аннотация: В данной статье проводится аналитический анализ развития экономики, предпринимательства, промышленности, сельского хозяйства на новом уровне, для обеспечения благосостояния населения посредством экономического роста в направлении стратегии «Узбекистан-2030» и для повышения привлекательности инвестиционной инициативы.

Ключевые слова: Стратегия, инвестиции, инвестиционная привлекательность, зеленая экономика, фондовый рынок, человеческий капитал

Annotation: In this article, there is an analysis of the development of the economy, the promotion of entrepreneurship, industry, agriculture to a new level and the increase of investment attractiveness in our country, as determined by the second direction of the "Uzbekistan-2030" strategy, which is determined by the sustainable economic growth.

Key words: Strategy, investment, investment attractiveness, green economy, stock market, human capital.

Bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo’naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo’jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag’batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalg etishdir.

Shunday ekan, davlatimiz rahbari mamlakatimizni kelgusi yillarda asosiy rivojlanish yo’nalishlarini belgilab beruvchi “O’zbekiston – 2030” strategiyasini 11-sentabrdagi farmoni bilan tasdiqladi.

Aytish joizki, “O’zbekiston — 2030” strategiyasi nafaqat mamlakatimizning kelgusi yetti yillik taraqqiyotini shu bilan birga, uning uzoq yillik rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim dasturiy hujjatdir. Unda xalqimizning erkin

va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yogda chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minalashga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangan.

Jumladan, Farmonda qayd etilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida quyidagi asosiy g‘oyalar o‘z ifodasini topgan:

- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali o‘rtadan yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga qo‘silish;
- xalq ehtiyojlari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyat va ijtimoiy himoya tizimini yaratish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish;
- xalqqa xizmat qiluvchi adolatli va zamonaviy davlat qurish; mamlakat suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minalash.

Xususan, strategiyada barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minalash bo‘yicha belgilangan ikkinchi yo‘nalishda iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirdorlik, sanoat, qishloq xo‘jaligi sohalarini yangi bosqichga olib chiqish borasida qator tashabbuslar ilgari surilgan.

2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish asosiy maqsad qilib olinmoqda. Bunda kelgusi yetti yillikda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minalash kabi chora-tadbirlar belgilangan. Ayniqsa, eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko‘paytirish, Yevropa davlatlariga GSP va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirishdek muhim vazifalar o‘z aksini topgan.

Investitsiya yo‘nalishi bo‘yicha ham katta marralar ko‘zlanmoqda. Xususan, iqtisodiyotga 250 milliard dollarlik yangi investitsiyalar, jumladan, 110 milliard dollar xorijdan, yana 40 milliard dollarlik mablag‘ davlat-xususiy sheriklik dasturlari orqali jalb etilishi ko‘zda tutilgan.

Bundan buyon har bir tumanning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida reyting joriy etiladi. 150 milliard dollarlik 500 dan ortiq strategik texnologik va infratuzilma loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Yirik loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etayotgan o‘rta biznes subyektlariga 5 milliard dollar miqdorida kreditlar ajratiladi.

Qishloq xo‘jaligi sanoatini rivojlantirish ham muhim vazifa etib belgilangan. Jumladan, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash 25 foizdan yuqori darajaga

ko‘tariladi. O‘zbekistonda 2,5 million tonna sig‘imga ega 100 ta agrologistika markazi quriladi. 300 ming hektar intensiv bog‘ va uzumzor suvni tejaydigan texnologiyalar bilan ta’minlanadi, shuningdek, tarmoq xodimlari uchun 10 foizli imtiyozli kreditlar ajratiladi. Pillachilikni rivojlantirish maqsadida tut plantatsiyalariga yana 105 ming hektar yer ajratiladi. Paxta hosildorligi hektariga 45–50 sentnerga, g‘alla hosildorligi 80–85 sentnerga yetkaziladi.

Qayd etilganidek, belgilangan maqsadlarning ijrosi o‘z vaqtida ta’minlanishi davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishida, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o‘rinda Jahon banki O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘lidagi asosiy muammolar va imkoniyatlar tahlil qilganda quyidagi xususiy sektor o‘sishi yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini cheklash, inson kapitalini rivojlantirish va mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tishi bo‘yicha tavsiyalarni e’lon qildi. Unga ko‘ra O‘zbekistonga yuqorida maqsadlarga erishish uchun quyidagi to‘rtta yo‘nalishda rivojlanish yordam berishi mumkin:

- 1) xususiy sektor o‘sishini rag‘batlantirish va barqaror ish o‘rinlarini yaratish;
- 2) davlatning iqtisodiyotdagi rolini isloh qilish;
- 3) fuqarolar manfaatlariga va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan dasturlarga investitsiya qilish;
- 4) ekologik barqaror kelajakni barpo etish.

Shuningdek, hisobotda rasmiylar uchun tavsiyalar berilgan va yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarda quyidagi ustuvor islohotlarga e’tibor qaratish zarurligi qayd etilgan:

Mamlakatda xususiy sektor o‘sishini rag‘batlantirish uchun:

- yer, mehnat va molivaviy resurslarni taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- xususiy sektorda raqobatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan normativ huquqiy bazani isloh qilish;
- xususiy sektoring jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishiga ko‘maklashuvchi tashqi savdo va investitsiya siyosatini olib borish;
- xususiy sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali xizmatlarni rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi bozorlaridagi islohotlarni jadallashtirish, bu esa davlatning ularning faoliyatiga aralashishiga chek qo‘yadi.

Davlat ko‘magi bilan mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun:

- davlatning tovar va xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi funksiyalaridan bozorni rivojlantirishni rag‘batlantiradigan funksiyalariga o‘tkazib, uning rolini transformatsiya qilishni jadallashtirish;
- davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va ularning samaradorligini oshirish;
- zarur ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish va turli hokimiyat organlarining boshqaruva faoliyatini takomillashtirish;
- davlat funksiyalarini markazsizlashtirishni davom ettirish;
- davlat organlarining fuqarolar oldidagi hisobdorligini oshirish zarur.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi mamlakatimiz rivojining muhim fundamental asoslarini o‘zida qamrab olgan bo‘lib, faoliyatimizning ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Muhimi, mazkur hujjat xalqaro hamjamiyat oldida davlatimiz mavqeい va obro‘sini yanada mustahkamlashga, mamlakat iqtisodiyoti barqaror o’sishining tayanchi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
2. <https://parliament.gov.uz/ru/news/ozbekiston-2030-strategiyasini> amalga oshirishning-iqtisodiy-va-huquqiy-asoslari
3. https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-islohotlar-tizimliligini-oshirishga-xizmat-qiladi_520744
4. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/9844>
5. <https://kun.uz/uz/news/2022/05/20/ozbekiston-iqtisodiyotini-rivojlantirish-uchun-nimalar-qilish-kerak-jahon-banki-ekspertlari-tavsiyalar>

III YO‘NALISH. MOLIYA-BANK TIZIMI, QIMMATLI QOG‘OZLAR VA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, XALQARO TAJRIBALAR VA UNI MILLIY IQTISODIYOTNI RIOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

УМУМИЙ ФОЙДАЛАНИШДАГИ АВТОМОБИЛЬ ЙЎЛЛАРИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

*Amaev Шухрат Шавкатович
Ипак йўли инновациялар университети
Ўқув ишлари бўйича проректори*

Азалдан йўллар ҳар бир жамият ва унинг асосида таркиб топган давлатнинг ижтимоий, иқтисодий ва қолаверса сиёсий ҳаётида муҳим стратегик аҳамият касб этган ва бу жараён изчил давом этмоқда. Давр ўзгариши маълум бир ривожланишни касб этади. Ривожланиш эса ўз навбатида йўлларнинг бир неча турларини кашф этишни тақоза этди. Шу боис, ҳозирги кунга келиб, ҳар бир мамлакат қўйидаги йўл турларидан ўзига хос географик жойлашувига мос равишда фойдаланиб келмоқда. Жумладан:

- ✓ Сув йўллари;
- ✓ Темир йўллар;
- ✓ Автомобил йўллар;